



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 3

Languages of publication: **Uzbek**, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





BOLA TARBIYASIDA O'ZBEK XALQ MAQOLLARI VA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI

Ilmiy rahbar: **Xolmatova Dilobod Alimjanovna**

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

Pedagogika kafedrası kata o'qituvchisi

Tojiqulo'va Fazilat Jamoliddin qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

Pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

tojiqulovabdurauf3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola bog'cha yoshidagi va umumiy o'rta ta'lim maktab yoshidagi bolalar tarbiyasiga o'zbek folklori qanchalar ta'sir qilishi va o'рни haqida. Hozirgi kunda folklor sohasini yanada rivojlantirish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, bolalar bilan olib boriladigan ma'naviy - ma'rifiy muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida.

Abstract: About how much Uzbek folklore affects and role in the upbringing of the age-age and general school age children. It is about the ongoing reforms in the further development of folklore, the importance of child spiritual and financial importance.

Аннотация: о том, сколько узбекского фольклора влияет и роль в воспитании детей по возрасту и общему школьному возрасту. Речь идет о продолжающихся реформах в дальнейшем развитии фольклора, важности духовного и финансового значения детей.

Tayanch so'zlar: Folklor, xalq ta'lim vazirligi, konsepsiya, atrof-muhit, hayot qomusi, iqtisodiy tafakkur, zararli sifatlar, hay'at majlisi, kengash, ijod sarchashmasi.

Keywords: Folklore, Ministry of Public Education, concept, environment, economic thinking, economic thinking, Headbuilding Meeting of Board, Council.

Ключевые слова: фольклор, Министерство государственного образования, концепции, окружающая среда, экономическое мышление, экономическое мышление, заседание совета директоров, совет директоров.

Kirish

Bolalar folklori - kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir. Shunga qaramay, o'zbek bolalar folklori namunalarini to'plash, nashr etish va ilmiy-estetik qiymatini o'rganishga uzoq vaqt e'tibor berilmay kelindi. XX asrning dastlabki choragi oxirlarida bu ishga kirishilgan bo'lsada, u uzluksiz jarayonga aylanmadi. 1937-yilda chop ettirilgan „Bolalar qo'shig'i"





to'plamidan O.Safarov tartib bergan „ O'zbek xalq ijodi" she'riyatida 1984-yilda bosilib chiqqan „ Boychechak" to'plamigacha kechgan sal kam yarim asrlik uzilish ana shu fikr dalili bo'la oladi. O'zbek bolalar folklorini o'rganish 60-yillardan e'tiboran izchillasha bordi.Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchasmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertaklar va dostonlarda o'zining yuksak orzu umidlari, zavq shavqiyu kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zinig mazmunan rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yug'rilganligi, juda kuchli, tarbiyaviy g'oyalar va yaxshiliklarga, to'g'rilikka, mehnatsevarlikka xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir.Kattalar hamisha o'z farzandlarini o'ylab yashaganlar - mehnat va ijod bilan shug'ullanganlar. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to'g'risida qayg'urish majburiyatining tobora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo'shiqlarning to'qilishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, chaqaloqni parvarish etish mas'uliyati behad katta bo'lgan.Bolalar folklyori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi. Misol uchun bola tarbiyasiga alla juda katta ta'sir qiladi. Ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani va ezgulikni, to'g'likni targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi. Xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan janrlardan biri alladir. Alla bolalar beshikdaligida, hali tili chiqmasidanoq aytiladi. Boshqacha talqin qiladigan bo'lsak, beshik qo'shig'i ya'ni bolaga ona suti bilan kiradi.Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin munosabatidan asosiy maqsad:salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarni hosil qilish;

o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish; o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish bo'lib hisoblanadi;

O'qituvchi bolaga bergan tarbiya bolani kelajakda qanday yetishishini ta'minlaydi,shu sababli tarbiyani bolaga turli jarayonlar vositasida singdiriladi.Vositalarning har bir vazifalari katta ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonlarining vazifalari:

1. O'quvchilarda ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish.
2. O'quvchilarda jamiyatga, vataniga muhabbatli va sadoqatli. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabatda tarbiyalash.
3. O'quvchilarda huquqiy madaniyatni tarbiyalash.
4. Atrof muhitga nisbatan to'g'ri munosabatda tarbiyalash.
5. Mehnatga to'g'ri munosabatini, kasb tanlashga jiddiy yondashuvda tarbiyalash.
6. Iqtisodiy tafakkurni, madaniyatni tarkib toptirish.





7. Tabiat va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idkor etishga o'rganish estetik ong, idrok, mulohazasini shakllantirish.

Ma'lumki, ruzg'orda, ayniksa kup bolali oilada mayda-chuyda ishlar nihoyatda ko'p bo'ladi. Hovli supirish, uy tozalash, kiyim-kechaklarni yuvish, ovkat pishirish vaboshka kundalik ishlarni kupincha bollar bemalol bajarishlari mumkin. Fakat ularnishunday ishlarni bajarishga urganish va kuniktirish joiz. Keksalarni hurmat kilish, ular maslahatlari, yul-yuriklariga binoan ish tutish va unga amal kilish kadimdan uzbeklarga xos odat bulib kelgan. Kattalarning ma'naviy-axlokiy me'yorlarni tushuntirish, kam gapli bulishi, fikrlar kiska ifodalanish kerak degan holda mavjud bulgan va unga amal qilgan. Tushuntirish mehnat tarbiyasida katta urin olgan masalan: ona uzining kiziga u yoki bu taom kanday pishirilishi, unga nimalar solinishi, kancha vakt kaynatilishi, kir yuvishda uni kanday sikish kerakligini tushuntirgan. Kattalarning maslahatlaridan jismoniy tarbiyada kup foydalangan. Ota-onalar, oiladagi kariyalar, ota-bobolarningtajribalari asosida yoshlarga sog'liklarini mustahkamlash, kasalliklardan saklanish vaorganizmni chiniktirish bolalarning uz xatti-harakatlarining tug'ri yoki notug'riligiga, adolatli yoki adoltsizligiga ishontirishning asosiy usullaridan biri hisoblangan.

Xalq pedagogikasida iltimos va istak doim birgalikda bulavermagan. Ko'pincha ulardan alohida-alohida foydalangan. Ota-onalar aksariyat hollarda o'z uz bolalarigailtimos tarikasida topshiriklar berishgan.

Sog'lom, jismoniy, barkamol shaxsni tarbiyalash. Tarbiya - ijtimoiy hayot hodisasi sifatida shaxs rivojlanishini bilan bog'liq. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog'liq. Tarbiya jarayoni uzoq va murakkab davom etadi. Tarbiya ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga tayanadi. Jamiyatning siyosiy tizimi va mafkuraga bog'liqligi obyektiv bo'lsa, tarbiya muassasalari o'qituvchilar, oila, tarbiyachilar, jamiyat tashkilotlari subyektiv omillar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bolani qayta tarbiyalash ham bor. Ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar, oilaviy sharoitning o'zgarishi, o'qituvchi shaxsidagi ayrim kamchiliklar asosida vujudga keladigan salbiy odatlarni, bola fe'l-atforidagi zararli sifatlarni yo'qotish qayta tarbiyalash deyiladi. Tarbiyalash - qayta tarbiyalashdan osonroqdir. Shuning uchun xatoni oldini olish kerak. Aks holda bola xulqini qayta tarbiyalashga to'g'ri keladi.

Xulosa. O'zbek xalq maqollari va xalq og'zaki ijodi — xalqning qadimdan kelayotgan tarbiyaviy merosi bo'lib, bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Maqollar, masallar, xalq qo'shiqlari va xalq og'zaki ijodining boshqa shakllari bolalarni hayotga tayyorlashda, ularning ahloqiy, ruhiy va ijtimoiy shakllanishida katta ahamiyatga ega. Xalq maqollari asosan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yoritadi. Masalan, "Ertaga bo'lgan ishni bugun qil" yoki "Qushni sevgan kuydirg'ichni sevsin" kabi maqollar, mehnatsevarlik, vaqtni samarali ishlatish, boshqalarga hurmat ko'rsatish kabi asosiy axloqiy tushunchalarni bolaga o'rgatadi. Bu maqollar bolalarda yaxshi odatlar shakllantirishga





yordam beradi. Xalq og'zaki ijodi (masallar, afsonalar, topishmoqlar) bola tarbiyasida til, fikrlash va mantiqiy o'ylashni rivojlantiradi. Masallar bolalarga axloqiy darslar berish bilan birga, hayotning turli jabhalarida qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Misol uchun, "Bo'ri va qo'ziqorin" masali, bolaga shijoatli bo'lishni va hatto qiyinchiliklarga qarshi turishni o'rgatadi. Xalq qo'shiqlari va dastanlar ham bolalarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Dastanlar tarixiy shaxslar va ularning jasorati haqida bolaga hikoya qiladi. Bu bolalarda vatanparvarlik va qahramonlikni rivojlantiradi. Xalq qo'shiqlari esa musiqiy va ritmik jihatdan bolalar ongiga kirib, ularni dunyoqarashini kengaytiradi, milliy qadriyatlarni hurmat qilishni o'rgatadi. Xalq og'zaki ijodi va maqollari bolalarga nafaqat individual sifatlar (sabr, mehnatsevarlik, halollik) balki, jamiyatda bir-biriga hurmat, yordam va birgalikda yashashni o'rgatadi. Bu bolalarga jamiyatda o'z o'rnini topish, boshqalar bilan til topish va ularni tushunish imkoniyatini yaratadi. O'zbek xalq maqollari va og'zaki ijodi bolalarga faqat axloqiy bilimlar berib qolmay, balki ularni hayotga tayyorlashda muhim vositadir. Ular bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish, mehnat va hayotiy prinsiplarni o'rgatish, shuningdek, jamiyatga foydali fuqarolarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Har bir maqol va masalda xalqning uzoq yillar davomida to'plangan donoligi, hayotiy tajribasi va axloqiy me'yorlari mujassamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Folklor // Bogatyrev P. G. Xalq ijodiyoti nazariyasi masalalari. - M., 1971. - S. 450-496.
2. Jahongirov F., O'zbek bolalar folklori.
3. "Milliy Tarbiya " Muallif: Muhammadjon Quronov, Hammuallif: I. Daminov , O.Bozorov, Sh.Akramova
4. O'zbek xalq maqollari, Tuzuvchi : Hosiyatxon Suvonqulova
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qarori, farmon va farmoyishlari. 2004-yil 26-fevral

